

# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020-yil yanvar-sentabr

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:  
**5 062,6 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati:  
**82,5 %**

### Asosiy kapitalga Investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:  
**1 042,3 mlrd. so'm**

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:  
**4 020,3 mlrd. so'm**

Joriy davrda 5 062,6 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 70,7 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 29,3 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:  
**456,1 mlrd. so'm**

Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:  
**83,1 mlrd. so'm**

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:  
**503,1 mlrd. so'm**

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :  
**884,3 mlrd. so'm**

Korxona mablag'lari:  
**601,1 mlrd. so'm**


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:  
**765,1 mlrd. so'm**

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:  
**1 769,8 mlrd. so'm**

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 35,0 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, aholi mablag'lari hisobidan 17,5 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 15,1 %, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari 11,9 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 9,9 %, Respublika byudjeti 9,0 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 1,6 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan, % da)





## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>5 062,6</b>	<b>82,5</b>	<b>100,0</b>
Republika byudjeti	456,1	78,2	9,0
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	83,1	65,7	1,6
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	503,1	109,6	9,9
Korxona mablag'lari	601,1	58,6	11,9
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	765,1	60,7	15,1
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	1769,8	102,9	35,0
Aholi mablag'lari	884,3	92,0	17,5



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo</b>	<b>5062,6</b>	<b>82,5</b>	<b>100,0</b>
Oltinsoy	190,8	110,3	3,8
Angor	208,6	79,7	4,1
Bandixon	25,6	100,9	0,5
Boysun	505,4	81,1	10,0
Denov	477,4	100,3	9,4
Jarqo'rg'on	246,8	38,3	4,9
Qiziriq	134,8	28,6	2,7
Qumqo'rg'on	197,6	78,4	3,9
Muzrabot	247,6	100,5	4,9
Sariosiyo	770,2	108,8	15,2
Termiz	490,6	128,8	9,7
Uzun	134,6	70,8	2,6
Sherobod	374,3	101,4	7,4
Sho'rchi	228,1	116,4	4,5
Termiz sh.	830,2	74,1	16,4


**Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Oltinsoy tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,3 %, Sariosiyo tumanida 108,8 %, Termiz tumanida 128,8 %, Denov tumanida 100,3 %, Sho'rchi tumanida 116,4 % va Bandixon tumanida 100,9 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

jamiga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Termiz shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,4 % o'zlashtirildi.


Shuningdek Termiz shahridan keyingi o'rinda Sariosiyo tumani – 15,2 % ni tashkil etmoqda.

Termiz va Denov tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda – 9,7 va 9,4 % ni tashkil etdi.

Boysun hamda Sherobod tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi – 10,0 va 7,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bandixon tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kami bo'ldi – 0,5 %.




## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 2 407,9 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 2 330,9 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga - 323,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 2 803,4 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 55,4 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 1 553,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 30,7 % ini tashkil etdi. Qolgan 13,9 %, yani - 706,0 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qishloq xo'jaligi yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan - 957,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 18,9 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 232,5 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,6 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish - 79,3 mlrd. so'm (1,6 %);

Tashish va saqlashda - 378,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,5 % o'zlashtirildi.



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiya	kredit			investitsiya	Kafolatlanmagan kredit
<b>Surxondaryo</b>	<b>2272,9</b>	<b>867,4</b>	<b>1405,5</b>	<b>867,4</b>	<b>902,4</b>	-	<b>902,4</b>
Termiz sh. tumanlar:	235,0	61,7	173,3	61,7	65,0	-	65,0
Oltinsoy	110,5	34,7	75,8	34,7	72,0	-	72,0
Angor	86,2	6,2	80,0	6,2	68,9	-	68,9
Bandixon	5,8	4,0	1,8	4,0		-	
Boysun	299,0	258,3	40,7	258,3	35,3	-	35,3
Denov	195,6	15,1	180,5	15,1	161,7	-	161,7
Jarqo'rg'on	92,7	23,7	69,0	23,7	67,1	-	67,1
Qiziriq	19,0	0,2	18,8	0,2	14,7	-	14,7
Qumqo'rg'on	71,5	4,0	67,5	4,0	46,4	-	46,4
Muzrabot	93,9	61,6	32,3	61,6	29,7	-	29,7
Sariosiyo	454,2	135,8	318,4	135,8	41,0	-	41,0
Termiz	237,1	73,2	163,9	73,2	147,8	-	147,8
Uzun	54,3	18,9	35,4	18,9	26,0	-	26,0
Sherobod	198,7	113,9	84,8	113,9	66,4	-	66,4
Sho'rchi	119,4	56,1	63,3	56,1	60,4	-	60,4

## Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Jamiga nisbatan, % da:




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi qayta ishslash sanoati oʼzlashtirilib, u 718,1 mlrd. soʼmni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 31,6 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi oʼrinni qishloq xoʼjaligi egallagan. Ushbu faoliyat turi boʼyicha - 553,3 mlrd. soʼm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 24,3 % oʼzlashtirildi.

Togʼ-kon sanoati faoliyati boʼyicha - 533,1 mlrd. soʼm, tashish va saqlash faoliyati boʼyicha - 211,9 mlrd. soʼm xorijiy investitsiya va kreditlar oʼzlashtirilgan.

## Obyektlarni foydalanishga topshirish

### Ishga tushirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 841,8 ming kv.m, bo'lgan 4662 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumiy maydoni 648,3 ming kv.m bo'lgan 3690 tasi qishloq joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Denov tumanida ishga tushirilgan 122,9 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 14,6 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Sariosiyo va Sherobod tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 12,6 va 10,9 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uzun tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,5 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni:

(76) 223-07-15